



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCE.UZ

30 APRIL  
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
24 -ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-24**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-24**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Jamilova Olima Suyarqulovna</b>	
TABIATNI VA TABIIY RESURSLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH MUAMMOLARI .....	7
<b>2. Shoimova Muhayyo Olimjonovna</b>	
ATMOSFERA VA UNING TARKIBI .....	9
<b>3. Кубаева Шахло Ёрбек қизи</b>	
МУХОФАЗА ЭТИЛАДИГАН ХУДУДЛАРДА ЭКОТУРИЗМ .....	10



## ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### TABIATNI VA TABIIY RESURSLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH MUAMMOLARI.

Jamilova Olima Suyarqulovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 15-umumiy o'rta ta'lim  
maktabi geografiya va iqtisod fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Tabiiy resurslarning xususiyatiga qarab, ularni tugaydigan, tugamaydigan va tiklanadigan resurslarga bo'lib o'rganish qabul qilingan. Ayrim tadqiqotchilar esa tiklanadigan resurslami tugaydigan resurslar tarkibiga kiritadilar. Tugaydigan resurslarga ko'pchilik foydali qazilmalar kiradi. Ular olinaversa tugaydi, lekin o'rniga yangisi tiklanmaydi yoki tiklanishi uchun yuz millionlab yillar kerak bo'ladi. Shuning uchun ulardan foydalanishda juda ehtiyoj bo'lish zarur.

**Kalit so'zlar.** Mendeleyev, kimyoviy element, kosmik resurslar, suv, iqlim, mamont daraxti, plastmassa, ko'mir, neft, resurs.

Tugaydigan resurslar ikki yo'l bilan - tejab ishlatish va ular o'rniga tugamaydigan resurslarni ishlatish bilan muhofaza qilinadi. Hozirgi vaqtida ham ba'zan konlardagi neft va ko'mirning ancha qismi Yer ostida qolib ketadi. Gazlar mash'ala qilib yoqiladi. Artezian suvlari ba'zi joylarda bekorga oqizib yuboriladi. Agar ular tejab-tergab sarflansa, anchaga yetadi. Metallami qayta eritib ishlatish mumkin. Ba'zilarining o'rnini sun'iy hosila mahsulotlar, masalan, plastmassalar, sun'iy yo'l bilan olingen mahsulotlar egallamoqda. Tiklanadigan resurslarga o'simliklar, hayvonlar, qisman tuproq, ba'zi bir tuzlar kiradi. Lekin ularni tiklash uchun zarur sharoit va vaqt kerak. Ba'zi hayvonlar bir yoki bir necha yilda tiklansa, o'rmonlar o'rta hisobda 60 yilda tiklanadi. Ba'zi resurslar ko'plab ishlatilishi (ov qilinishi, foydalanilishi) natijasida tiklanmaydigan bo'lib qolishi ham mumkin, ya'ni turi butunlay yo'qolib ketsa, tiklab bo'lmaydi. O'rmonlarning ko'plab kesilib ketishi tuproqlar eroziyasiga sabab bo'ladi. Tog' jinslaridan 30 sm qalinlikdagi tuproqning hosil bo'lishi uchun esa 15-20 ming yildan ortiq vaqt kerak. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish hammadan ko'p tiklanadigan resurslarga taalluqlidir. Ularni ehtiyojlab sarflash va o'rnini tiklab borish lozim. Uzoq muddatda tiklanadigan resurslar nisbatan tiklanadigan resurslar deb ham yuritiladi. Bunday resurslarga unumdar qatlamlari eroziya natijasida yuvilib, shamolda uchib ketgan tuproqlarni, katta yoshdag'i daraxtlarni kiritish mumkin. Ayrim resurslarning tiklanishiga ba'zan bir avlod insonning umri yetmaydi, ularni tiklash juda qimmatga tushadi. Masalan, Shimoliy Amerikadagi mamont daraxti 6 ming yil yashaydi. Kedr 100 yoshga yetganda yaxshi hosil bera boshlaydi, 300 yoshida eng ko'p hosil beradi, demak, kedr o'rmonlarining har yili 300 dan bir qismini kesishimiz va o'rniga yangisini ekishimiz mumkin. Shunda ulaming hozirgi maydoni saqlanib qoladi. Chinor, sadaqayrag'och, yong'oqzorlar, nokzorlar ham sekin tiklanadi. Tugamaydigan resurslarga yadro energiyasi, yer ichki energiyasi, suv, iqlim va kosmik resurslar kiradi. Suv resurslari deganda ro'zg'or va sanoatda, qishloq xo'jaligi hamda transportda, elektr energiyasi olishda foydalaniladigan chuchuk suv tushuniladi. Iqlimi sharoit boyligiga havo, shamol energiyasi, havo harorati, yog'in miqdori, uning qachon yog'ishi va h.k.lar kiradi. Yog'inlar ham iqlim, ham suv resurslariga kiradi. Kosmik resurslarga Quyosh radiatsiyasi, suv ko'tarilishi va qaytishi energiyasini kiritish mumkin. Bu resurslardan foydalanish bilan ular kamayib qolmaydi. Lekin ishlab chiqarishning benihoya o'sib ketishi tugamaydigan resurslarga anchagina ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iflos chiqindilar tashlanishi natijasida oqar suvlarning bir qismi foydalanishga yaramay qoladi. Atmosferada karbonat angidrid gazi va aerozollar ko'payadi. Bu esa bora-bora iqlimning o'zgarishiga olib keladi. Shaharlarda Quyoshdan keladigan nur tarkibi muayyan darajada o'zgaradi va h.k. Tabiiy sharoitga kiruvchi iqlim xususiyatlari, tuproqlar, yer



yuzasining tuzilishi (relyef) va har bir joyning o‘ziga xos xususiyatlarini boshqa joylarga olib ketib bo‘lmaydi, ulardan o‘z joyida foydalaniadi. Lekin tabiiy sharoit juda muhofaza talab boylik hisoblanadi. Tabiatning bu boyliklarini ifloslanishdan, buzilishdan, salbiy o‘zgarishlardan asrash zarur. Ayrim ilmiy-ommabop va maxsus maqolalarda qazilma boyliklarning “yetmay qolish xavfi” haqida ma’lumotlar uchrab turadi. Har yili 100 mldr tonnaga yaqin ruda va mineral yoqilg‘i qazib chiqarilmoqda. Keyingi 30 yil ichida insoniyatning butun tarixi davomidagiga qaraganda ko‘proq rangli metallar qazib olindi. Agar XVIII asrgacha 19 xil kimyoviy elementdan foydalananlgan bo‘lsa, hozir barcha kimyoviy elementlardan foydalaniadi. Qazilmalarning tobora ko‘p qazib chiqarilayotganligi sababli ular tezda tugab qolishi mumkin, degan fikrlar mavjud. Miqdori chegaralangan resurs bo’lganidan keyin bora-bora tugaydi-da. Ba’zi hisoblarga qaraganda, dunyoda neft bilan gaz XXI asr o‘rtalarida tugashi, ko‘mir zaxirasi esa 200 — 250 yilga yetishi mumkin. Dunyodagi ayrim mamlakatlar, ayniqsa yirik mamlakatlar - Rossiya, Xitoy, AQSH, Kanada, Avstraliya, Qozog‘iston yer osti boyliklari zaxirasi jihatidan yetakchi o‘rinlarda turadi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati yer osti boyliklariga qanchalik boy ekanligiga ham bog‘liq. O‘zbekiston hududida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyolar to‘plangan. Respublikamizda mineral xomashyolarning 95 turi borligi aniqlangan. Ularning 700 ta koni mavud. Respublikamizda Mendeleyev jadvalidagi hamma elementlar bor, 370 dan ortiq kon ishlab turibdi. Tabiiy gazning aniqlangan zaxiralari 2 trillion kub metmi, ko‘mir ikki milliard tonnani, neft 350 million tonnani tashkil etadi. Mamlakat foydali qazilmalarga har qancha boy bo‘lmasin, ulardan xo‘jalikda oqilonqa foydalinish, nest-nobud qilmaslik zarur. Qimmatli xomashyo bo‘lgan foydali qazilmalar qazilib olinayotganda, ishlov berilayotganda, bir joydan ikkinchi joyga tashilayotganda isrof bo‘lishi mumkin.

### Foydalanalgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Zokirov Sh.S., Egamov B.Y. Geografiya tarixi: Erotosfendan Koshg‘arigacha. - T., “Chashmaprint”, 2012.
2. Zokirov Sh.S., Ibragimova R.A. Oral tabiiy geografik okrugi. - T.: Mumtoz soz, 2015.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## ATMOSFERA VA UNING TARKIBI.

Shoimova Muhayyo Olimjonovna  
20-maktabning Geografiya va Iqtisodiy  
bilim asoslari fani óqituvchisi  
muhammadSaid 31118@gmail.com

**Annotatsiya.** Atmosfera - Yerni o'rab olgan havo okeani sifatida ta'riflanadi. Atmosfera Yerni bir necha ming kilometr balandlikda o'rab turuvchi gazlarning aralashmasidan iborat bo'lib, uning asosiy qismini azot va kislород tashkil etadi. Ushbu havo qatlami Yerdagi og'irlik kuchi ta'sirida bo'ladi.

**Kalit so'zlar.** Ozon, vodorod, neon, ksenon, geliy, metan, meteor, ultrabinafsha nurlar, izolyator, karbonat angidrid, og'irlik kuchi, kislород, azot, Atmosfera.

Hayvonot olami va kishilar yashashi uchun suv va kislород muhim hisoblanadi. O'simliklar karbonat angidrid gazini hamda yetaricha suv zaxirasini talab qiladi. Ko'pgina tirik mavjudotlar ekstremal haroratda, katta miqdordagi zararli nurlarning ta'siri ostida uzoq yashay olmaydi. Yer tizimida radiatsiyani va suvni ushlab turishga yordam beradigan, katta qismi kislород va karbonat angidriddan iborat bo'lган atmosfera Yerni o'rab olgan havo qobiq hisoblanadi. Garchi atmosfera yupqa havo qobig'i bo'lsa ham Yerdagi hayotni ta'minlovchi harorati saqlaydigan izolyator vazifasini bajaradi. Atmosfera bo'lмаганда Yerda kecha va kunduz orasidagi harorat 260°C (500°F)ni tashkil qilar edi. Atmosfera qalqon bo'lib xizmat qiladi, Quyoshning ultrabinafsha nurlarining katta qismini to'sadi va meteor yomg'irlaridan saqlaydi. Atmosfera dengiz sathida joylashgan, eng yuqori zichligi shu yerda, yuqoriga ko'tarilgan sari esa zichlik kamayib boradi. Bu havoning siqiluvchan ekanligi tufayli sodir bo'ladi. Dengiz sathida havo bosimi o'rtacha 1013 millibarni tashkil etadi, ayni paytda 5000 metr balandlikda bor-yo'g'i 550 millibarga teng bo'ladi. Yer atrofini o'rab olgan havo qobig'i taxminan 480 km (300 mil) ga cho'zilgan. Uning zichligi balandlik oshgan sayin kamayib boradi. Atmosfera havosining 97% i 25 km (16 mil) balandlikda joylashgan. Shu sababli havo massasi Yer yuzasida bosimni yuzaga keltiradi. Dengiz sathida bosim kvadrat santimetrga taxminan 1034 grammni tashkil qiladi. Atmosfera tarkibini shakllanishida uchta bosqich ajratiladi: 1) Yerning dastlabki atmosferasi suv bug'lari, vodorod ammiak va vodorod sulfatidan iborat bo'lган. Suv bug'lari Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida vodorod bilan kislородга parchalanib turgan bo'lsa ham, u vaqtdagi atmosferada erkin kislород bo'lмаган. Erkin kislород ammiak oksidlanib, azot va suvga aylanishiga, shuningdek metan bilan uglerodning oksidlanishiga sarf bo'lган. Vodorodning bir qismi kosmik fazoga tarqalib turgan. Karbonat angidrid Yer po'stining boshqa elementlari bilan reaksiyaga kirishib, ohaktosh va boshqa karbonatli jinslarni hosil qilgan; 2) ikkinchi bosqichda atmosfera karbonat angidriddan iborat bo'lган. Karbonat angidrid vulqonlar otilganda mantiyadan chiqib kelgan. Qadimda vulqonlar ko'p otilib turgan. Atmosferaning karbonat angidridli bosqichi toshko'mir davrida tugagan. Ushbu davrda yashil o'simliklar fotosintez jarayonida karbonat angidridni yutib, havoga erkin kislород chiqargan; 3) uchinchi bosqich paleozooyning oxiridan boshlangan. Mazkur davrdan boshlab atmosfera tarkibi hozirgi holatga ega bo'lган. Bunday havo tarkibining tarkib topishida va saqlanib qolishida tirik mavjudotlar muhim o'rinn tutgan. Atmosferaning tarkibi bir qancha gazlarning aralashmasidan iborat bo'lib, Yer tabiatining bir qismi sifatida uzoq geologik davr mobaynida shakllangan. Atmosfera doimiy va vaqtincha tarkiblardan iborat. Atmosferaning doimiy tarkibi turli xil gazlar aralashmasidan iborat. Atmosferaning 78% dan ortig'ini azot, 21% kislород, 1% argon, karbonat angidridi esa (so'nggi yillarda salmog'i oshgan) 0,04 %ni tashkil etadi. Yana ozon, vodorod, neon, ksenon, geliy, metan kabi boshqa gazlar ham bor. Atmosferaning quyi qatlamlarida ozon elektr razryadlari (masalan, yuqori to'lqinli elektr uzatish liniyalari va chaqmoq urishi), shuningdek, qisqa to'lqinli Quyosh radiatsiyasi kelishidan hosil bo'ladi. Buni zaxarlovchi ifloslantiruvchilarga asosan turli xil yara va ko'zdan yosh oqishini, tomoq, nafas olish organlari kasalliklarini keltirib chiqaradigan shahar komponentlari hisoblanadi. Ozon Yer yuzasi yaqinda xatarli va hayot shakli uchun faqat zararli bo'lishi mumkin. Shunga qaramay atmosferaning yuqori qatlamidagi ozon quruqlik va dengiz hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ozon Quyoshning ultrabinafsha nurlarining katta qismini yutib olganligi sababli hayotiy shakllar uchun muhim ahamiyatga ega.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. Toshkent, 2009.
2. Vahobov H. va boshqalar. Umumiy Yer bilimi. Darslik. - T.: Bilim, 2005.
3. www.ziyouz.com



## МУҲОФАЗА ЭТИЛАДИГАН ҲУДУДЛАРДА ЭКОТУРИЗМ (Угом-Чотқол давлат миллий табиат боғи мисолида)

Кубаева Шахло Ёрбек қизи  
ЎзМУ, 2-курс магистранти  
+99899-885-91-50

**Аннотация:** Угом-Чотқол давлат миллий табиат боғининг иқлими таҳлили.

**Калит сўзлар:** Угом-Чотқол давлат миллий табиат боғининг иқлими таҳлили. Экотуризм ҳолати, имконияти.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда туризмнинг турли йўналишлари - тарихий туризм, зиёрат туризм, ёшлар туризми тобора оммалашиб бормоқда. Булардан ташқари ички ва ташки туристларни ўзига жалб қилаётган йўналиши экотуризм ҳам қўпгина чет давлатлар қатори Ўзбекистонда ҳам ривожланиб бормоқда. Ўзбекистоннинг экотуристик имкониятларидан ҳозирги кунда бир қанча вилоятларда унумли фойдаланган ҳолда янги ишчи жойлари яратилиб, маҳаллий аҳолининг даромади ошиб бормоқда. Шу билан бирга экологик маданият юксалиб, атроф муҳитни муҳофаза қилиш чора тадбирлари ишлаб чиқилмоқда.

Экотуризм туризмнинг бошқа турларидан фарқ қилган ҳолда табиий ҳудудларнинг барқарор ривожланишга катта таъсир кўрсатади. Алоҳида муҳофаза этиладиган ҳудудларда табиий муҳитга зарар етказилмайдиган, экологик таълимга йўналтирилган, маҳаллий ижтимоий-маданий муҳитни саклашга қаратилган ҳамда ҳудудларни барқарор ривожланишини таъминлашдан иборатдир.

### УГОМ-ЧОТҚОЛ ДАВЛАТ МИЛЛИЙ ТАБИАТ БОҒИНИНГ ИҚЛИМИ

Ўрганилаётган ҳудуднинг иқлимий шароитини экотуризм учун яроқли ва яроқсизлик даражасини аниқлашда иқлимининг таҳлили ҳам муҳимdir.

Чирчик-Оҳангарон районининг жуда ҳам континентал, қуруқ иқлимининг шаклланишида унинг географик ўрни, рельефи муҳим роль ўйнайди. Район ҳудудининг тоғ олди қия текисликларидан, паст, ўртacha ва баланд тоғлардан иборатлиги унинг иқлимини ички фарқланишларига сабаб бўлган. Тоғларда абсолют баландлик, дарё водийларининг ва тоғ тизмаларининг йўналиши, шакли бу ўлка учун текислик қисми иқлимидан фарқ қиладиган ўзига хос иқлимни шакллантирган. Бу фарқлар баландга кўтарилиган сари ҳаво ҳарорати ва босимининг пасайишида, атмосфера ҳавосининг тиниқлигига ва ёғин микдорининг ортishiда намоён бўлади. Тоғларда қишининг давомли бўлиши қорнинг узоқ вақт сақланишига ва тоғнинг жуда баланд қисмларида доимий қор ва музликларнинг вужудга келишига имкон яратади.

Экотуристнинг ҳолатини белгилаб берадиган ва экотуристик маршрут-ларни режалаштиришда муҳим роль ўйнайдиган қуйидаги кўрсаткичларга: қуёш нур сочиб турадиган вақтга (соатга), ҳаво ҳароратига ва унинг қиши ва ёз ойларида декадалар бўйича ўзгаришига, минимал ва максимал ҳаво ҳароратига, экотуризм учун қулай бўлган даврларнинг давомийлигига, ёғин микдорига, совуқ бўлмайдиган кунлар давомийлигига, қуруқ даврнинг бошланиш вақтига, аридлик хусусиятларига эътибор қаратилди.

Биз В.С.Мезенцев ва И.В.Карнаевичлар (1969) тавсия этган усул асосида Чирчик-Оҳангарон райони учун шу ерда жойлашган метеостанциялар маълумотларидан фойдаланган ҳолда аридлик коэффициентини ҳисоблаб чиқдик ва унинг асосида районда экотуристик имкониятлари ҳар хил бўлган кучли арид, арид, субарид (аридга яқин), кучсиз арид, даврий арид ва гумид иқлим минтақаларини ажратдик (3.1-жадвал). Экотуристик имконияти яхши синфига, кучсиз арид, аридлик маълум бир даврда кузатиладиган иқлим минтақаларини, ўртacha имкониятлига арид ва субаридли иқлим минтақаларини, жуда кам имкониятлига кучли арид ва гумид иқлимли минтақаларни киритдик.

Таъкидлаш лозимки, Угом-Чотқол давлат табиат миллий боғининг тоғлик қисмida табиий шароит ва иқтисодий-ижтимоий омиллар қулай бўлган жойларида табиий жараёнлар жадаллигини ва сейсмик ҳавфни инобатга олган ҳолда экотуристик маршрутларни кенгайтириш, янгиларини ташкил этиш ва экотуристларни дам олиб, даволаниб, сайр-саёҳатда



бўлиб, кайфиятларини яхшилашлари имконияти мавжуд.

Демак, район худуди экотуризмни ривожланиши учун зарур бўлган барча ресурсларга эга. Мафтункор табиати, унинг хилма-хиллиги экотуристларни жалб қилувчи асосий омилдир. Район худуди ўзининг тўқай, воҳа ва тоғ ландшафтлари, тоғ сойлари ва булоқлари, кўллари, музликлари, ғорлари, сув омборлари, каналлари, ер ости минерал сувлари билан экотуризм марказига айланиши мумкин. Районда экотуризмни барча турларини (илмий, табиатнинг тарихи билан боғлиқ саёҳатлар, саргузашт туризм, табиат резерватларига саёҳат) ривожлантириш имкони мавжуд.

Хулоса қилиб шуни шуни айтиш мумкинки, Чирчик-Оҳангарон районининг тоғли қисмининг (800-1500-2000 метрлар оралиғида) иклими ўзгача, салқин ёз, қорли юмшоқ қиши, тоза тоғ ҳавоси экотуризм учун имкон яратади. Бугунги кунда округнинг мавжуд барча иклимий имкониятларидан экотуризмни ривожлантириш йўлида тўла, самарали фойдаланиш мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мухофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонуни // Халқ сўзи.2004, 4 декабрь.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т.”Ўқитувчи” 1996. - 264
3. Зокиров Ш.С.Чирчик-Оҳангарон ҳавзаси ландшафтларининг худудий табақаланишидаги асосий қонуниятлар”Ўзбекистон география жамияти ахбороти 30 – жилд Т.2008. - 8-11 б.
4. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси Т.: “O’qituvchi”, 2010. - 100 б.
5. Ҳасанов И.А., Шомуратова Н.Т.. Никадамбаева Ҳ.Б. Тошкент вилояти табиатининг рекреация имкониятлари // Ўзбекистон география жамияти VII съезди материаллари-Т., 2006. - 25-26 б.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(24-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000